

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA ORTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Xorijiy tillar fakulteti
Ingliz tilshunosligi kafedrası

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Fakultet dekani

_____ M.M Jo'rayeva

<<_____>> _____

4-kurs talabasi Ro'ziyeva Nilufarning

“J.A.Guddonning “Adabiyotshunoslik terminlari va adabiyotshunoslik nazariyasi” (“Literary terms and Literary theory”) lug'atidagi terminlarning mavzuviy guruhlari” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

5120100-Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi

Ilmiy rahbar: M.U.Saidova

Taqrizchi: PhD D.I.Xodjayeva

Buxoro-2019

MUNDARIJA

KIRISH	2
I BOB. TERMINOLOGIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI	
1.1. Termin va terminologiya haqida fikr va mulohazalar.....	6
1.2. Adabiyotshunoslik terminlarining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi.....	13
II BOB. J. A. KUDDONNING “ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARI VA ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI” LUG’ATIDAGI ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARINING TASNIFI VA TAHLILI	
2.1. J. A. Kuddonning “Adabiyotshunoslik terminlari va adabiyotshunoslik nazariyasi” lug’ati va uning yaratilish tarixi.....	23
2.2. J. A. Kuddonning “Adabiyotshunoslik terminlari va adabiyotshunoslik nazariyasi” lug’atidagi terminlarning mavzuiy guruhlari bo’yicha tahlili.....	28
XULOSA	47
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati	50

KIRISH

Muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" nomli asarida "Hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisining 32 foizini yoki 10 millionini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarimiz tashkil etadi.

Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida butun zamon talab qilayotgan yuksak darjaga ko'taramiz.

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz",¹- deya ta'kidlab o'tganlar.

Darhaqiqat, buning isboti sifatida muhtaram prezidentimizning mamlakatimizni 2016- yilda ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017- yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisida so'zlagan nutqlarini yoki mamlakatimizda xorijiy tillarni yanada rivojlantirish, umumta'lim maktablari, kasb - hunar kollejlari va akademik litseylar, oily ta'lim muassasalari uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash, chet tili ta'limi darajasi va sifatini xalqaro standartlarga muvofiq tashkil etish bo'yicha olib borilayotgan talaygina islohotlarni keltirib o'tish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori qabul qilingandan so'ng, chet tillarni, ayniqsa, ingliz tilini o'rganish davr talabiga aylandi.

Yosh avlodda o'z ona tilini mukammal bilgan holda yana birorta chet tilni, xususan, ingliz tilini chuqur o'rganish, bu tilda bemalol muloqat qila olish

¹ Mirziyoyev Sh. M. " Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Toshkent "O'zbekiston" - 2016.

ko`nikma va malakalarini hosil qilish, yetuk mutaxasislarni tayyorlash bo`yicha ilmiy-tadqiqot ishlar olib borish, olingan natijalarni ommalash zaruriyati mazkur tadqiqot ishlarini amalga oshirishga turtki bo`ladi.

Milliy tilimiz davlat maqomiga ko`tarilib, e`zozlanayotgan bir paytda taraqqiyotimizning poydevori, garovi bo`lmish xorijiy tillarni o`rganishga katta ahamiyat berildi, xususan, ingliz tiliga. Hozirgi kunda ingliz tilini 1-sinfdan boshlab ta`lim tizimida joriy etilganligi, ingliz tilidagi darsliklarning ya`ni, takomillashtirilgan nusxalarining bosib chiqarilayotganligi hamda o`rta maxsus va oliy ta`lim muassasalarida maxsus jihozlangan ingliz tili xonalarining yaratilayotganligi, yosh avlodni har tomonlama yetuk mutaxassis bo`lib yetishishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib berilayotganligi fikrimizning yorqin dalilidir.

Mavzuning dolzarbligi. Terminologiya tushunchasining nazariy asoslarini, ya'ni uning kelib chiqish tarixi hamda mazmun mohiyatini chuqur anglab yetish hozirgi kuning dolzarb vazifasidir.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, mazkur bitiruv malakaviy ishimizning mavzusi ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi, zero unda J. A. Kuddonning “Adabiyotshunoslik terminlari va adabiyotshunoslik nazariyasi” lug`atida keltirilgan adabiyotshunoslik terminlarining mavzuiy guruhlanishi kabi muammolarni o`rganishga e`tibor qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Ushbu ilmiy ishimizda terminologiya tushunchasining nazariy asoslarini, termin va terminologiya haqidagi turli xil mulohazalarni, adabiyotshunoslik terminlarning o`rganilish tarixini, J. A. Kuddonning “Adabiyotshunoslik terminlari va adabiyotshunoslik nazariyasi” lug`atida keltirilgan adabiyotshunoslik terminlarining mavzuiy guruhlanishini , turli mavzuiy guruhlariga bo`linuvchi terminlarni o`rganish va tahlil qilish asosiy maqsadimizdir.

Jahon va o`zbek olimlarining termin haqidagi qarashlarini o`rganish va bir- biri bilan taqqoslash, ixtisos terminlari ustida ishlash, terminologiyaning taraqqiyot

bosqichlari va o'rganilishi haqida ma'lumot berish, adabiyotshunoslikka oid terminlarni aniqlash, tahlil qilish kabi vazifani belgilab oldik.

Bitiruv malakaviy ishining o'rganilganlik darajasi va yangiligi. Termin va terminologiyaning kelib chiqish tarixi, turlari, ularga qo'yilgan me'yoriy talablar, adabiyotshunoslik terminlari lug'atini yaratish asosida hozirgi paytgacha juda ko'p tadqiqot ishlari olib borilgan, shu jumladan, Terminga qo'yiladigan me'yoriy talablar dastlab terminologiya maktabi asoschisi D.S.Lotte tomonidan ishlab chiqilgan, terminga nisbatan funksional yondashuv G.O.Vinokur, V.V.Vinogradov, A.A.Reformatskiy va V.G.Gak kabi olimlarning ishlarida o'rganilgan, Homidiy H, Abdullayeva Sh, Ibrohimova S 1967- yilda "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati"ni ishlab chiqqanlar.

mavzularida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan va ularda termin va terminologiya tushunchalariga va kelib chiqish tarixiga har tomonlama tavsif berishgan. Biz esa ushbu bitiruv malakaviy ishimizda J. A. Kuddonning "Adabiyotshunoslik terminlari va adabiyotshunoslik nazariyasi" lug'atida keltirilgan adabiyotshunoslik terminlarining mavzuiy guruhlanishi hamda ularning muammoli tomonlarini topib, ularni tahlil qilish, ushbu terminlarning hali ochilmagan xarakter xususiyatlarini topib ochishga harakat qildik.

Bitiruv malakaviy ishining obykti va predmeti. J. A. Kuddonning "Dictionary of Literary terms and literary theory" asarlari tadqiqotimiz uchun ob'yekt bo'lib xizmat qilsa, turli mavzuiy guruhlar ya'ni proza va poeziya esa predmet bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning nazariy-amaliy ahamiyati. Mazkur ilmiy ishimiz akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari o'quv dasturidagi adabiyot darslarida qo'shimcha material sifatida ham nazariy jihatdan, ham amaliy jihatdan qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, ilmiy ishimizdan o'qituvchilar va magistr talabalar ham qo'llanma sifatida foydalanishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy asosi. Bitiruv malakaviy ishini yozishda bizga M. H. Abramsning "A Glossary of Literary terms", J.A. Kuddon

muharrirligi ostida chop etilgan "Dictionary of Literary Terms and Literary Theory", Galperinning "Stylistics " asarlari nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Mazkur malakaviy bitiruv ishimiz kirish, 2 bob, 4 paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. TERMINOLOGIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Termin va terminologiya haqida fikr va mulohazalar

Termin (lotincha; terminus - chek, chegara) kabi ma'nolarni ifodalaydi. Termin (atama) - fan, texnika, kasb - hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasidir. Termin so'zi o'rnida ba'zan atama, istiloh so'zlarini ishlatish hollari uchrab turadi. Ammo bu to'g'ri emas. Atama termin so'ziga nisbatan tor tushunchani ifodalaydi. Istiloh so'zi esa arabchadir. Buni ko'pchilik tushunmaydi chunki bu me'yorga aylangan emas. Terminlar ilmiy kommunikatsiyadan jonli so'zlashuvga o'tganda, xalq uchun tushunarli so'zlarga aylana boradi. Olamning ilmiy - me'yoriy manzarasini terminlarsiz tasavvur qilish qiyin. Chunki terminlar ilmiy matn hosil qiluvchi tayanch birliklar vazifasini bajaradi.

A. Reformatskiy terminga ta'rif berar ekan, " Terminlar - bu maxsus so'zlardir" degan xulosaga keladi. A.V. Kalinin muayyan va kasbkorlikda ishlatiladigan so'zlarni " Maxsus leksika" deb ataydi va uni ikki guruhga ajratadi.

1. Maxsus leksikaga, birinchi navbatda, terminlar kiradi.

2. Maxsus leksika tarkibiga terminlardan tashqari professionalizmlar ham kiradi.

U o'z fikrini davom ettirib, " Termin bilan professionalizmlar o'rtasidagi farq shuki, termin bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xo'jaligi, texnikadagi tamomila rasmiy bo'lgan, qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasidir, nomidir. Professionalizm esa biror kasb, mutaxassislik, ko'pincha jonli tilda tarqalgan, aslini olganda, tushunchaning qat'iy, ilmiy tavsifiga ega bo'lmagan yarim rasmiy so'zdir", - deydi.

R. Doniyorov bu fikrga e'tirozan, " Bunday qat'iy da'vo, aslini olganda, tilni sinfiy deb hisoblagan ayrim "olim" larning qarashlari davomidir desak, xatoga yo'l qo'ymasmiz" deya munosabat bildiradi.

H. Jamolxonov terming nisbatan munosabatda bo'lar ekan quyidagicha yozadi:

"Terminlar fan - texnika, adabiyot, san'at va boshqa sohalarga oid ixtisoslashgan, qo'llanishi muayyan soha bilan chegaralangan tushunchalarni ifodalaydigan

nominativ birliklardir. Masalan: gulkosa, shona (Botanikada); to'tburchak, kvadrat (Geometriyada); ega, kesim (Tilshunoslikda); qofiya, turoq, vazn (Adabiyotshunoslikda) kabi"

Determinlashish - terminologik sistemadagi so'zning adabiy tilga to'la o'zlashishidir. Terminologiya (lotincha; terminus - chegara; yunoncha; logos - fan, ta'limot), ya'ni terminlar haqidagi ta'limot va terminlar majmui degan ma'nolarini anglatadi.

Terminologiya- 1. Fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasida qo'llanadigan terminlar majmui.

2. Tilshunoslikning terminlarni o'rganish, tartibga solish bilan shug'ullanuvchi sohasi.

Terminologiya masalalari hamisha tilshunoslikning dolzarb masalalaridan bo'lib kelgan. Chunki terminlarning sohalar lug'aviy qatlamlaridagi o'rni va vazifasini belgilash, tushunchaning mazmun - mohiyatini to'g'ri anglash imkonini beradi. Terminologiyaga bag'ishlangan ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarni anglatadigan, definitsiyaga ega bo'lgan va asosan, nominativ funksiyani bajaradigan birliklar termin hisoblanadi deb qaraladi. ²

Ma'lumki, funksional yondashuv asosiy e'tiborni lisoniy belgi aktualizatsiyasi (qo'llanilishi) bilan bog'liq holatlarga qaratadi. Shuning uchun terminning mohiyatini chuqur va har tomonlama o'rganish zarurati funksional yondashuv tamoyillaridan ham foydalanishni taqozo etadi. Terminga nisbatan funksional yondashuv E. Drozen (1934), G.O. Vinokur (1939), V.V. Vinogradov, A.A. Reformatskiy (1986) va V.G. Gak kabi olimlarning ishlarida o'rganilgan. Shuningdek, A.A. Reformatskiy (1986), B.N. Goloven (1981), N.P. Kuzkin (1962), L. Kapanadze (1965) va boshqa ko'plab olimlar terminologiya sohasida, O.S. Akhmanova (1990), V.P. Kaprovich (1978), R.Yu. Kobrin (1991), V.M.

² Dehqonova. L, Xudoyqulova. Sh. «Terminologiya va davlat tilida ish yuritish asoslari ». Guliston – 2013. 31-32-betlar.

Leychik (1986), V.D. Tabanakova (1998), E.N. Tolikina kabi olimlar terminologiyaning semantik xususiyatlari ustida, A.S. Gelt terminologiya va atamalar majmuyiasidagi bog'liqlik, M.V. Organisyan (2003), O.V. Dovbysh (2003), S.V. Sakhneevich (1998) terminologiyaning tarjima muammolari hamda Z.M. Polyutina (2002) terminologiya sohasiga yaqin bo'lgan sohalar ustida izlanishlar olib borganlar.³

V.V. Vinogradovning fikriga ko'ra, terminning umumqo'llanishdagi so'zdan farqi unda definitiv funksiyaning mavjudligidir, chunki termin ortida predmet, narsa, hodisaning emas, balki mantiqiy ta'rif turadi.

Terminlarni (tor soha birliklarini) noterminlarga (milliy tilning umumiste'moldagi leksemalariga) qarama - qarshi qo'yish tamoyili o'zini oqlamadi, chunki u ikki lug'aviy qatlam orasida doimo transpozitsiya holatida kuzatiladi.

N.P. Kuzkinning fikriga qaraganda, ular orasida mazmunan ham, shaklan ham jiddiy farq yo'q, bo'lishi mumkin bo'lgan yagona va obyektiv farq uning g'ayrilisoniy voqelik bilan bog'liqdir: umumqo'llanishdagi so'z turmushdagi tushunchani aks ettirsa, termin tor doiradagi mutaxassislariga tushunarli bo'lgan tushunchani ifodalaydi.

Bizningcha, muallifning bu fikriga qo'shiish qiyin, chunki keng doiradagi mutaxassislariga tushunarli bo'lgan terminlar ham ko'p va ular umumiy terminotizimning juda katta qismini tashkil qiladi.

Narsa-buyum ma'nosi va tushuncha ma'nosi orasidagi munosabatni o'rganishda quyidagi uch holatni inobatga olgan holda ish ko'rish maqsadga muvofiq: a) termin lug'aviy ma'noga ega, ammo bu ma'no faqat ifodalanayotgan tushuncha bilan chegaralanmaydi (D.P. Gorskiy, K.A. Levkovskaya, A.S. Gerd); b) termin lug'aviy ma'noga ega va bu ma'no tushunchadir (Ye. M. Galkina - Fedoruk, P.S. Popov); c) termin lug'aviy ma'noga ega emas, balki tushunchaga to'g'ri keladi (Zvegensev, Reformatskiy, L.A. Kapanadze).

Terminga qo'yiladigan me'yoriy talablar dastlab terminologiya maktabi asoschisi D.S. Lotte tomonidan ishlab chiqilgan. Bu talablar quyidagilardir:

³ Saidova M.U. " The problem of studying literary terms on figurative language".

tizimlilik, konkretga bog'liq emaslik, qisqalik, bir ma'nolilik, aniqlilik, oddiylik, tushunarlilik, tadbiiq etilganlik darajasi va boshqalar. Ular ayrim aniqlik va qo'shimchalar bilan ko'plab olimlar, jumladan, I. N. Volkova, A.V. Krijanovskaya, L. A. Simonenko va boshqalarning ishlarida sanab o'tilgan.

Quyida shu talablarning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

1. Tizimlilik: har qanday termin muayyan terminologik tizimning bir bo'lagi. Aynan shu xususiyat uni termin maqomiga ko'taradi. Terminotizim esa ikki xil tizimlilikka ega - mantiqiy tizimlilik va lisoniy tizimlilik.

2. Bir ma'nolilik: termin faqat bir ilmiy yoki texnik tushunchani ifodalashi va bir tushuncha faqat bir terminga mos bo'lishi kerak. Termin ma'nosining kontekstga qarab turlanib turishi, D.S.Lottega ko'ra, terminologiyaning eng jiddiy kamchiliklaridan biridir.

3. Qisqalik (lo'ndalik, ixchamlik): terminning qisqa varianti – bu funksional nuqtai nazardan terminga teng shakl. Uni erkin va ixtiyoriy shaklda qo'llashning imkoni yo'q.

4. Aniqlilik: ilmiy tushuncha aniq chegaraga ega va bu chegara uning ta'rifida o'z ifodasini topadi. Terminning aniqligi deganda uning ta'rifida berilgan tushunchaga xos barcha belgilarning mavjudligi tushuniladi.

5. Lisoniy asos: o'z yoki o'zga til asosida yasalgan terminlardan birini tanlash lozim bo'lganda, albatta, o'z termindan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki o'zlashma terminlarni ko'p va asossiz ravishda qo'llash muqarrar ravishda terminologiyaning umumxalq tilidan ajralib va nomutaxassislarga tushunarsiz bo'lib qolishiga olib keladi.

Terminning struktur tarkibi, V.P. Danilenkoning ko'rsatishicha, uch lug'aviy qatlamni o'z ichiga oladi: 1) noterminologik leksika; 2) umumilmiy leksika; 3) terminologik leksika. Agar umumilmiy terminlar bir fan doirasi bilan chegaralanmaydigan umumiy ma'nolarni ifodalasa, terminologik leksika (konkret terminotizimning maxsus so'zlari) ilm-fan tilining eng ko'p ma'no tashuvchi qismidir.

Z.I.Komarova leksemalarni stilistik nuqtai nazardan me'yoriy (so'zning o'z ma'nosidagi terminlar) va g'ayri me'yoriy (professionalizm, terminoid individual obrazli iboralar) guruhlarga ajratadi.

Terminlar – ilm-fan, texnika, san'at, inson faoliyati boshqa sohalarining mutaxassislar doirasida keng qo'llanadigan maxsus nomlardir. Ular, o'z navbatida, proteterminlarga, ilk terminlarga va terminoidlarga bo'linadi.

Ko'pincha, termin va nomenklatura tushunchalari o'zaro farqlanmasdan qo'llanadi. Shuning uchun ushbu o'rinda yo'l-yo'lakay nomenklaturaga ham munosabat bildirishga to'g'ri keladi. Nomenklatura (lotincha - nomenclatura "ro'yxat") – ilm-fanning turdosh (tipik) obyektlari nomi. Agar termin umumiy tushunchani ifodalasa, nomenklatura xususiy tushunchani ifodalaydi. Masalan, ta'lim muassasalari turlari, o'quv-didaktik jihoz va shu kabilar nomlari nomenklaturalardir.⁴

Terminologiya butunlay yangi bir o'rganish maydoni emas, aksincha, u ishlab chiqilgan asosiy insoniy ehtiyoj, identifikatsiyalash va etiketkalash yoki narsalarni nomlashni talab qiladi. Shunga qaramay, uning aniq ta'rifi belgilanmagan.

XVIII va XIX asrlarda atamashunoslar terminologiyada etakchi bo'lgan. Shunga qaramay ular terminlarning tarqalishidan qo'rquvga tushganlar . Ular shuningdek, formalar xilma-xilligi hamda shakllar va tushunchalar o'rtasidagi munosabatlardan tashvishga tushishdi. Na konsepsiyalarning tabiati va na yangi atamalarni yaratish asoslari ularda qiziqish uyg'ota oldi.

20-asrda muhandislar va texnik mutaxassislar ishtirok etishdi. Tez rivojlanish va texnologiyalarni rivojlantirish nafaqat yangi konsepsiyalarning nomlanishi, balki, talab qilinadigan talablarni ham o'z ichiga oladigan ish bilan ta'minlash shartlari haqida shartnoma tuzildi. Amaliyot natijasida terminologik ish muayyan ixtisoslashgan sohalarda tashkil etildi. XX asrning birinchi yarmida na tilshunoslik, na sotsiologik terminlarga alohida e'tibor berildi. Terminologiya

⁴ Dehqonova. L, Xudoyqulova. Sh. «Terminologiya va davlat tilida ish yuritish asoslari ». Guliston – 2013. 31-32-betlar.

1930-yillarda shakllana boshladi. Terminologiya sohasida olib borilgan ko'pgina tadqiqotlar Eugen Vusterning nomi bilan bog'liq, Avstriyalik tilshunos Vuster terminologiyaning otasi deb hisoblangan, Vusterning ishlari zamonaviy terminologiya sohasining rivojlanishida juda muhim rol o'ynagan. 1930- yil doktorlik dissertatsiyasida u dalillarni taqdim etadi. Terminologiyada ish uslublarini tizimlashtirish, bir qator prinsiplarni belgilab, metodologiya sohasida terminlardan foydalanishning asosiy qoidalarini belgilab beradi.

Vusterning fikriga ko'ra, to'rt nafar olim tan olinishi mumkin bo'lgan terminlar nazariyasining intellektual otalari hisoblanadi: "Germaniyalik olim Alfred Shlomann, u birinchilardan bo'lib maxsus terminlarning muntazamligini hisobga olgan; Shveytsariyalik tilshunos Ferdinand de Sossyur, birinchi bo'lib tilning sistematik xarakteriga e'tibor qaratdi; Rossiyalik E. Dresen, standartlashtirishning muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotlagan; YuNESKOning ingliz tili olimi J. E. Xolmstrom, u terminlarni xalqaro miqyosda tarqatishda vositachi bo'lgan ".⁵

Akademik G'. Abdurahmonov terminologik lug'atlarning ma'lum fan sohasiga xizmat qilibgina qolmay, terminlarni tartibga solish, takomillashtirish hamda standartlashtirishda ham muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Terminologik lug'atlar uchun termin tanlash nihoyatda muhim as'uliyatli ish. Chunki har bir termin ma'lum tushunchani to'g'ri ifodalashi, o'zi ifodalagan sohaga va ayni chog 'da ona tilining ichki qonuniyatlariga mos bo'lishi shart. Tanlangan termin bir ma'noli, ixcham so'z yoki birikmadan iborat bo'lishi, qolaversa, u sinonimlarga ega bo'lmasligi kerak. Terminologik lug'atlar ko'pincha bir tilda yoki ikki tilda tuzilib, uning vazifasi har bir sohada terminlarni izohlab, tushuntirib berishdan iborat. Bunday lug'atlar "Maxsus lug'at", ya'ni "Ayrim sohalar lug'ati" deb ham yuritiladi. Terminologik lug'atlar har qaysi soha bo'yicha, chunonchi, qishloq xo'jaligi, falsafa, tabobat, tilshunoslik, geografiya, fizika, matematika, geologiya kabi barcha

⁵ Daria Protopopescu. "Theories of terminology - past and present ". University of Bucharest.

sohalar bo'yicha tuziladi. O'zbek tilida T. N. Qori Niyoziyning “Ruscha - o'zbekcha matematik terminlar lug'ati”, R. X. Maxlin va M. D. Yagudayevlarning “Ruscha - o'zbekcha qisqacha botanika terminlari lug'ati”, Y. A. Yunusovning “Ruscha - o'zbekcha qisqa fiziologik terminlar lug'ati”, M. A. Sobirovning “Ruscha - o'zbekcha matematik terminlar lug'ati” va boshqalar ana shunday terminologik lug'atlardandir. Tilshunoslik tushunchalari haqidagi ilmiy va amaliy tadqiqotlar Akmanova (1966, 1990), Vasileva (1998), Gvishiani (1986, 1990), Golovin (1976), Kulikova (2002), Petrosyants (2004), Podolskaya, Slyusarova (1983, 2000), Shelov (1998) va boshqalar tomonidan olib borilgan. So'nggi yillarda tilshunoslik bo'yicha tadqiqotlar nashr etilgan va biz bunga misol qilib, Nikulina (1990), Utkina (2001), Emelyanova (2000), Vermeer (1971), Zaxarenkova (1999), Nemis (1990), Golovkina (1996) kabilarni ko'rsatishimiz mumkin .

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarga diqqat bilan qarasaq, biz tadqiqot loyihasi ob'ekti bo'lgan adabiy atamalar sloveniya, rim va nemis tillarida kamdan-kam hollarda o'rganilganini ko'ramiz. Shuning uchun falsafiy, madaniy, axloqiy, estetik, diniy, lingvistik va ayniqsa adabiy so'zlarni o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

E. G. Petrosyantsga ko'ra, hozirgi kunda tilshunoslik bo'yicha 70 dan ortiq lug'atlar, ensiklopediyalar va ma'lumotnomalar mavjud. Shu bilan birga, lug'atlar, ensiklopediyalar va adabiy jihatdan mos keladigan kitoblar nisbatan kam uchraydi. Bu holat adabiyot shartlarining yetarlicha o'rganilmaganligini va ular to'g'risidagi ma'lumotlar tizimlanmaganligini ko'rsatadi⁶.

⁶ Petrosyants E.G. Linguistical terminopoly: structure, semantics, derivation: on English material. – Pyatigors, 2004.

1.2. Adabiyotshunoslik terminlarining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi

Har bir til shu tilga mansub xalqning moddiy va ma'naviy dunyosini butun borlig'icha o'zida aks ettiruvchi yorqin ko'zgu bo'lib, insonning mehnat va ijtimoiy faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois, jamiyatda sodir bo'lgan har qanday voqelik yoki o'zgarish, birinchi navbatda, tilda o'zini namoyon etadi. Tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot davomida tilning lug'at tarkibi tadrijiy ravishda doimo rivojlanib, boyib boradi. Bu boyish jamiyat rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan yangi tushunchalarni ifodalovchi yangi so'zlar, nomlarning vujudga kelishi hisobiga sodir bo'ladi. Tilning lug'at tarkibi, uning leksik-semantik sistemasi doimo o'zgarib boradi, ayni zamonda, jamiyat uchun keraksiz holga kelgan tushuncha yoki predmet nomlarini ifodalab kelgan so'zlar arxaik so'z sifatida iste'moldan chiqib, uning o'rnini yangi so'zlar egallaydi, Lekin iste'moldan chiqqan so'zlar miqdori yangi paydo bo'lgan so'zlarga nisbatan ancha kam bo'ladi. Lekin ba'zi hollarda buning aksi ham bo'lishi mumkin. Albatta, lug'aviy birliklarning iste'moldan chiqishi lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida, tilning tabiati, til taraqqiyoti qonuniyatlari asosida ro'y beradi. Bunda ikki asosiy hodisa kuzatiladi:

1. Jamiyat va tabiatdagi narsa-hodisalarning yo'qolishi bilan ularning ifodachisi bo'lgan so'zlar ham yo'q bo'ladi, hozirgi til strukturasi (lug'at sistemasidan) chiqadi va tarixiy so'zlarga aylanadi.

2. Tilning takomillashuvi jarayonida narsa-hodisaning mohiyatini aniq, to'la va to'g'ri ifodalay olmaydigan lug'aviy birliklar iste'moldan chiqib, ularning o'rnini hodisani aniq, to'g'ri va to'la ifodalaydigan lug'aviy birliklar egallaydi. Diaxron aspektida o'zbek terminologiyasida faol bo'lgan lekin, yuqorida aytganimizdek, bugunga kelib muayyan sohalarda ko'pgina jarayon va narsa-hodisalarning yo'q bo'lib ketishi natijasida ularni ifodalovchi *“mistar”*, *“sheroza”*, *“xoma”*, *“muzahhib”*, *“lavvoh”*, *“kitobdor”*, *“midod”*, *“musavvada”*, *“xushnavis”*, *“dabir”* kabilar iste'moldan chiqib, tarixiy terminlar qatoridan joy oldi. Shuningdek, rivojlanish natijasi o'laroq qog'oz ishlab chiqarishda zamonaviy texnika vositalarining qo'llanishi azaliy mavjud bo'lgan qog'oz tayyorlash

texnologiyasini jiddiy bir shaklda o'zgartirib yubordi. Qog'ozning ipak yoki kanopdan emas, balki sellyulozadan tayyorlanishi natijasida qog'oz turlarini anglatuvchi qog'ozi nimkatoni, qog'ozi abrisho'miy, qog'ozi sultoniy, ohor muhrati qog'oz; qog'oz ishlab chiqaruvchi geografik hududning o'zgarishi bilan Samarqand qog'ozi, Xuroson qog'ozi, Qo'qon qog'ozi; qog'oz tayyorlash ishining hunarmandchilikdan takomillashgan sanoat sohasiga aylanishi tufayli

“qog'ozgar”, “qog'ozrez”, “varroq”, “sahhof”, “juvozi kog'az”, “korxonai kog'azbardor” kabi terminlar muomaladan chiqib ketdi. Ularning o'rnini “*fin qog'ozi*”, “*kompyuter qog'ozi*”, “*yozuv qog'ozi*”, “*qog'oz sanoati*”, “*qog'oz fabrikasi*”, “*muqovachi*” kabi yangi terminlar egalladi. Lug'at tarkibining doimiy ravishda boyib borishi ijtimoiy hodisa sifatida til taraqqiyotining eng asosiy qonuniyatlaridan hisoblanadi. Leksik taraqqiyot jamiyat rivojlanishining turli davrlarida turli ko'rinishda, turli darajada bo'ladi. Yangi so'z ixtiro qilinmaydi, balki tilda mavjud bo'lgan so'z vasovchi elementlar, ya'ni muayyan tilning o'z ichki imkoniyatlari hisobiga vujudga keladi. O'ylab topilgan so'zlar turli tillarda juda ham kam sonni tashkil etadi. Rus tilshunosi E.A.Zemskaya yozadi: “Bir dam o'ylab ko'raylik, yangi so'z eskisi bilan butunlay bog'lanmagan holda yasaldi, deylik. U holda tilni egallash juda qiyin bir ahvolga kelib qolar, yoki buning umuman imkoni ham bo'lmas edi. Lug'at tarkibini kengaytirish yo'sini undan foydalanishni yanada qulaylashtirish, eng asosiysi, tildagi mavjud o'zaro bog'langan so'zlar orqali real hayotdagi o'zaro bog'langan voqea-hodisalarni ifodalashdan iboratdir. Shunday qilib, so'zlarning tildagi o'zaro aloqasi real predmet va mavjud voqea-hodisalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni aks ettiradi”.⁷

Tilning lug'at tarkibi yangi so'zlar hisobiga doimo boyib boradi, bu bilan til ham taraqqiy etadi. Yangi so'zlarning asosiy qismini terminlar tashkil etadi. Fan va texnika taraqqiyoti yangi terminlarni vujudga keltiradi, ayni zamonda, terminlar fan va texnika taraqqiyotiga zamin yaratadi, Zotan, terminologik jihatdan ilmiy ishlanmagan fan yoki ishlab chiqarish sohasi kutilganidek rivojlana olmaydi. Jamiyatdagi har qanday o'zgarish, birinchi navbatda, tilda o'z aksini topadi.

⁷ Земская Э.А. “Как делаются слова” — Москва, 1963

Jamiyat taraqqiyotidagi ma'lum bir davrlarda u yoki bu soha terminologiyasining muayyan bir tor doira ko'lamidan chiqib, umumxalq nutqida ham keng foydalanish holatlari kuzatiladi. Xususan, O'zbekiston mustaqilligi yillarida ijtimoiy-iqtisodiy terminologiyaga oid ko'plab terminlarning o'zbek adabiy tilining chegaralanmagan qatlamiga singib borib, ommaviy nutqda keng ko'lamda qo'llanilishini kuzatish mumkin. *“Investitsiya”, “valyuta”, “bank”, “mustaqillik”, “bozor iqtisodiyoti”, “konvertatsiya”, “ma'naviyat”, “milliy mafkura”, “milliy istiqlol g'oyasi”, “akademik litsey”* kabi terminlar mustaqillik mevasi sifatida tilimizda faol qo'llanib kelmoqda. Tadqiqotimizning avvalgi bobida ko'rib o'tganimizdek, ayni shunga o'xshash vaziyatni kitobatchilik terminologiyasining XV-XVI asrlardagi taraqqiyotida ham kuzatishimiz mumkin. Chunki bu davrlarda kitobatchilikning gullab-yashnashi o'z ta'sirini xalq turmush tarziga, o'z navbatida, so'zlashuv tiliga ham ko'rsata oldi. Ijtimoiy hayotda xalq turmush tarziga kirib kelgan narsa-hodisalar bilan birga ularga oid terminlar ham tilga singib, xalqning kundalik nutqidan keng o'rin olib boradi. Demak, har bir til leksikasi tarkibi doimiy ravishda yangilanib turadi. Ayni zamonda, tilning lug'at tarkibidagi o'z ahamiyatini yo'qotgan so'zlar arxaik so'zlar qatoriga o'tib, iste'moldan chiqish hodisasi ham sodir bo'lib boradi. Lekin yangi so'zlarning paydo bo'lish hodisasi so'zlarning iste'moldan chiqishiga nisbatan ancha yuqori bo'ladi. Bunda lug'at sostavining boyib borishi har bir tilning o'z ichki imkoniyatlari asosida va o'zga tildan o'zlashtirish yo'li bilan bo'lishi lingvistik adabiyotlarda qayd etilgan va barcha tomonidan tan olingan.

Ma'lumki, har bir tildagi so'zlar bir nechta ma'noga ega bo'ladi. Ko'p ma'noli so'zlarning aniq ma'nosi kontekstda, gap tarkibida aniqlanadi. Bunday so'zlar nutqning ta'sirli, jonli, ixcham va badiiy bo'lishida nihoyatda katta rol o'ynaydi. Shuning bilan birga, har bir tilda o'zining ishlatilish doirasiga ko'ra cheklangan, asosan, birgina ma'noga ega bo'lgan birgina tushunchani ifodalaydigan so'zlar ham bo'ladi. Bunday so'zlar, xususan fan, texnika, san'at, siyosat, til va adabiyot, hunarmandchilik kabi turli sohalarda uchraydi. Bu sohalarda hamma diqqat borliqni faqat mantiq jihatdan bilishga qaratilgan.

Shuning uchun fan-texnika, siyosat sohalarida so'zlarning nihoyatda aniq bo'lishi talab qilinadi. Fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so'z yoki so'z birikmasi termin deb ataladi. Terminlar bir ma'noli bo'lishi, ekspressivlik va emotsionallikka ega bo'lmasligi kabi belgilari bilan, ham umumiste'moldagi so'zlardan farqlanadi. Masalan, lingvistik terminlar: “*gap*”, “*ega*”, “*ot*”, “*son*”, “*tovush*”; geom etriyaga oid terminlar: “*aylana*”, “*uchburchak*”; fizikaga oid terminlar: “*jism*”, “*bosim*”, “*harakat*”, “*maydon*”; kimyoga oid terminlar: “*suv*”, “*kumush*”, “*ishqor*”, “*tuzlar*” va boshqalar.

Terminlarning muhim xususiyati shundaki, ular ko'p ma'noli bo'lmaydi. Ko'chma ma'nolarda ishlatilishi nihoyatda kam uchraydi. Masalan, ko'pgina tillarda bo'lgani singari o'zbek tilida ham “*operatsiya*” so'zi termin sifatida: 1) meditsina sohasida yorish, kesish, kesib olib tashlash, yangisini solish va shu yo'llar bilan kasallikni tuzatish davolash ma'nosida; 2) harbiy sohada biror vazifa va maqsadni amalga oshirishga qaratilgan urush harakatlari ma'nosida; 3) davlat idoralarida rasmiy muomala (masalan: bank operatsiyasi, pochta operatsiyasi kabi) ma'nolarida qo'llaniladi. Ma'lumki, har bir soha terminologiyasining shakllanish jarayoni adabiy tilga xos bo'lgan omonimiya, sinonimiya va boshqa xildagi leksik-semantik ko'rinishlar bilan bog'liq holda kechadi. Lekin ushbu holatlar o'zbek terminologiyasining barcha sohaları uchun bir xilda emas. Xususan, hozirgi o'zbek ilmiy-texnikaviy terminologiyasida avj olgan salbiy hodisalardan biri ko'p shakllilik - sinonimiyadir. Bunda birgina tushunchani ifodalash uchun turli so'z (yoki so'z birikmalari) qo'llanadi. Garchi bunday holat vaqtinchalik bo'lib, terminlarni tartibga solish jarayonida bartaraf etilsa-da, ammo ma'lum davr mobaynida u terminlardan foydalanishda turli qiyinchiliklar va chalkashliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shuni alohida qayd etish kerakki, terminologiyada birgina tushunchani ifodalashda qo'llanadigan turli terminlarni qanday atash masalasida munozaralar ham mavjud. Chunonchi, ba'zi tilshunoslar terminologiyada neytrallik bo'lishini hisobga olib, bir tushunchani anglatuvchi turlicha ifodalarni “dublet terminlar” deb atashsa, boshqa bir qator olimlar esa uni

“sinonim” deb ham atash mumkinligini qayd etganlar. Ba’zi olimlar esa, terminologiyadagi sinonimlik umum adabiy tildagidan birmuncha farq qilishini va shu boisdan ham ularni “dublet” deb aytayotganliklarini qayd etganlar. Umuman, nafaqat terminologiyada, hatto tilshunoslikda ham “sinonim”, “dublet” va “variantlilik” kabi tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari aniq belgilanmagan hamda ularni farqlash masalasi hali to'liq hal etilmagan.

Har bir tilda jumladan, o'zbek tilida terminlar quyidagi yo'llar bilan hosil bo'ladi: 1) har bir xalqning o'z til boyligidan, undagi turli imkoniyatlardan foydalanish asosida: *uchburchak, urg'u, qo'lyozma, ega, kesim, aniqlovchi, qo'shimcha* kabilar; 2) chet tillarda, ayniqsa, rus tili va u orqali boshqa tillardan tayyor terminlarni qabul qilish bilan: *plyus, minus, fonema, biologiya, atlas, atom, gramm*. Terminologiya keng ma'noda leksikaning bir qatlami bo'lib ijtimoiy hayotning turli sohalarida qo'llaniladigan terminlarning majmuidir. Terminologiya tor ma'noda fan yoki texnika, adabiyot, san'at yoki ishlab chiqarishga xos terminlar yig'indisini tashkil etadi. Fan-texnika, adabiyot, san'at va ishlab chiqarishning taraqqiy etib borishi bilan terminologiya ham rivojlanib boradi, yangi terminlar paydo bo'ladi. Ba'zi bir eskirib, keraksiz bo'lib qolgan terminlar esa iste'moldan chiqib qoladi.

Tilshunoslikda terminlarni tartibga solish masalasi har doim ham dolzarb bo'lib kelgan. Har bir soha terminologiyasini tartibga solish bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. O'zbek tilshunosligida sohaviy terminologiyalarni tartibga solish masalasida bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Lekin qilingan ishlarning salmog'i bilan chegaralanib qola olmaymiz. Chunki terminlarni tartibga solish masalasini barcha soha terminologiyalarida ham bir xilda olib borilyapti deb bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan bu yo'nalishda yechimini kutayotgan muammolar talaygina. O'zbek terminologiyasi to'laligicha bugunga qadar jiddiy shaklda lingvistik tadqiqot ob'ekti bo'lmagan va barcha soha terminologiyalarini tartibga solish masalasi deyarli hal etilmagan. Ma'lumki, har bir fan sohasining rivojlanish va takomillashuv darajasi shu soha terminologiyasining qay darajada taraqqiy etganligi, shuningdek, tartibga solinganligi kabi belgilar bilan ham uzviy

bog'liqdir. Chunki ilmiy adabiyotda qo'llanadigan termin yoki uning ifoda shakli aniq va ravshan bo'lmas ekan, unda, albatta, chalkashlik, noaniqlik kabi salbiy holatlar saqlanib qolaveradi. Shu bois, har bir fan yoki sohaning taraqqiyot ko'rsatkichi shu soha terminologiyasining "qat'iy ilmiy terminologiya"ga ega ekanligi bilan ham belgilanadi. Bu yerda "qat'iy ilmiy terminologiya" tushunchasi biron bir sohaviy terminologiyaning mazkur fan sohasi taraqqiyoti bilan uyg'unlashuvi, sohaviy terminologiyaning ayni sohaga oid tushunchalarni ifodalashdagi hamohangligi, yaratilgan va muomalada bo'lib turgan terminologiyaning muayyan fan tili bilan mos kelishi kabi holatlarni nazarda tutadi. Terminlarning aniqligi va qat'iylashishi shu millatning dini, maorifi, madaniyati darajasini ko'rsatadi. Terminlarning rivojlanishi, tartibga solinishi fanning har xil sohalarida turlicha bo'lib, ma'lum fanning taraqqiyotiga bog'liq. Bu taraqqiyot to'xtovsiz bo'lgani uchun yangi terminlarning kelib chiqishi, tartibga tushishi ham uzluksiz bo'ladi, Umuman, ona tilida terminlarning puxta ishlanishi, tartibga solinishi darslik va qo'llanmalar tuzish uchun ham, ona tilida dars olib borish uchun ham zarur bo'lgan manbadir. Terminlarning ishlanmaganligi va tartibga solinmaganligi nutq uslubiga ham ta'sir ko'rsatadi. Demak, terminologiyani tartibga solinishi nafaqat ilmiy sohada, balki ijtimoiy hayotda ham ahamiyati katta bo'lgan masaladir. Terminologiyani tartibga solishning samaradorligi terminlar bevosita qo'llanadigan quyidagi holatlarda yaqqol ko'rinadi- kasbiy ta'limni to'g'ri tashkil etishda, ishlab chiqarish amaliyotida bo'ladigan og'zaki muomalada, ilmiy va ishlab chiqarish jarayonlaridagi o'zaro yozishmalarda, matbaachilikda (ilmiy, o'quv, ishlab chiqarish kabilarga oid adabiyotlarni nashr etishda), chet el adabiyotlarini tarjima qilishda va hokazo.

Ma'lumki, har bir fan sohasi doimiy taraqqiyotda bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, undagi tushunchalarning, ular orqali terminlarning ham o'zgarib turishiga olib keladi. Noo'rin, asossiz tanlangan atama ma'lum davr o'tishi bilan ifodalangan tushuncha mazmuniga mos kelmasa, iste'moldan chiqadi, yangi atama yaratiladi yoki uning sinonimi o'rnini egallaydi. Shuning uchun ham atama lug'atlari ma'lum vaqt o'tishi bilan qayta nashr qilinadi - to'ldiriladi yoki asossiz

atamalar boshqa qulay va aniq atamalar bilan almashadi. Demak, terminologiyani tartibga solish bu doimiy va kundalik ishimiz bo'lishi, shuningdek, u fan va texnika taraqqiyoti bilan ham ohang takomillashib borishi lozim.

Tilshunoslikda terminlarning o'zgarishi hamda yangi terminlarning paydo bo'lishi fan va texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. Texnika taraqqiyoti ta'sirida terminologiya o'zaro aloqador ikki qonuniyat asosida, birinchidan, ilmiy-texnika progressi qonuniyatlari bilan, ikkinchidan, til rivojlanishining umumiy qonuniyatlari bilan bog'liq ravishda o'zgarib boradi. Texnik malakaning endilikda ma'lum tor doiradan chiqib, ommaviy xarakterga ega bo'layotganligi va turli sohalarning mutaxassisleri kundalik faoliyatida fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanayotganligi terminlarga bo'lgan yuksak talab bilan uning hozirgi holati orasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etishni talab etadi. Chunki jamiyat hayotida fan va texnika qanchalik katta ahamiyatga ega bo'lsa, uni egallash, boshqarish va taraqqiy ettirish uchun terminlar ham shunchalik muhim ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan, terminlarni tartibga solish juda katta ilmiy va ijtimoiy ahamiyatga egadir. Fan-texnikaning tez sur'atlar bilan rivojlanib borishi natijasida yangidan-yangi mashinalar, apparatlar, asbob-anjomlar va texnologik jarayonlarning paydo bo'lishi bilan ularni ifodalovchi yangi terminlar ham vujudga kelmoqda. Shu sababli, yangi texnika vositalari qaysi sohaga ko'proq kirib kelgan bo'lsa, shu soha terminologiyasi to'xtovsiz ravishda kengayib bormoqda. Masalan, ana shunday sohalardan biri poligrafiya- nashriyotchilik sohasidir. Mazkur soha taraqqiyotiga e'tibor bersak, bu sohaga texnik vositalarning kirib kelishi, asosan, yigirmanchi asr boshlariga to'g'ri keladi. Lekin uning eng taraqqiy etgan davri bugungi kundagi holatidir. Hozirgi zamonaviy poligrafiya-nashriyotchilik tarmog'i hujjatlarni tayyorlash va ularning nusxalarini ko'paytirish, kitob holiga keltirish jarayonlarini o'zida mujassamlashtirgan texnik vositalar qo'llanadigan yetakchi sohalardan biriga aylandi. Natijada, ushbu soha terminologiyasiga juda ko'plab yangi tushunchalar va ular bilan birga yangi ilmiy-texnikaviy terminlar ham kirib kelmoqda. Albatta, bunday o'zgarishlar o'zbek tilining ish ko'rish doirasini kengaytirib, uning leksik sostavini yangi-yangi ilmiy va texnik terminlar bilan boyitdi. Ko'pchilik hollarda

yangi terminlar yaratish ishiga oddiy tarjima jarayoni sifatida qaraymiz. Terminologiyadagi mavjud kamchilik hamda tartibsizliklarning asosiy sabablaridan biri ham shundadir. Zotan, yangi termin yaratish har taraflama mukammal bo'lgan ijodiy jarayondir. Har qanday ilmiy-texnikaviy termin oddiy so'zning yoki so'z birikmasining terminologiyadagi aksi bo'lib, u aniq chegaralangan hamda belgilangan mazmunga, bu mazmun esa, kontekstdan qat'iy nazar, laqat shu terminga oid bo'lishi lozim. K. M. Musayev terminologiyani tilning leksikasi sifatida go'yo bir shaharga qiyoslaydi. Uning fikricha, "Terminologiya yagona reja asosida qurilsa-da, lekin birdaniga barpo etilmaydi. U tarixiy shart-sharoit asosida shakllanadi, uni yaratishda har xil avlodga mansub bo'lgan turli me'morlar, loyihachilar, kashfiyotchilar ishtirok etadi. Ular har bir qurilayotgan inshootni yaxshi o'rgangan holda barpo etadilar. Terminologiyani tartibga solishdagi o'ziga xos murakkablik ham shu bilan belgilanadi".⁸

Rus tilshunosi D.S.Lotte terminologiyaga bag'ishlangan asarlarida barcha sohaviy terminologiyalar uchun umumiy bo'lgan quyidagi jiddiy kamchiliklarni ko'rsatib o'tadi:

“1. Barcha terminologik sistemalar uchun taalluqli bo'lgan jiddiy kamchiliklardan biri terminlarning ko'p ma'noliligidir. Bunda bir termin ikki va undan ortiq ma'nolarda qo'llanadi.

2. Hozirgi terminologiyadagi ikkinchi yirik nuqsonlardan biri terminlar sinonimiyasi hodisasidir. Termin-sinonim (dublet)lar deganda muayyan bir tushunchani ifodalash uchun ikki va undan ortiq terminning muomalada bo'lishi tushuniladi.

3. Terminologiyadagi yana bir kamchilik bu ma'lum bir tushunchani ifodalashga xizmat qiluvchi term inning anglatishi lozim bo'lgan tushuncha mohiyatiga uyg'un bo'lmasligidir. Ba'zi holatlarda so'zning aynan ma'nosi bilan tushuncha mohiyati o'rtasida nomutanosiblik vujudga keladi.

4. Terminologiyadagi navbatdagi nuqson terminning ko'p komponentlardan iborat bo'lishi va natijada, uni qo'llashdagi noqulaylikdir. Bunda muayyan bir

⁸ Мусаев К.М. Формирование, развитие и современные проблемы терминологии. - М.: Наука, 1986.

tushunchani ifodalashga xizmat qiluvchi termin ikki va undan ortiq komponentlardan iborat bo'ladi. Bunday yasalishga oid bo'lgan terminlarda, birinchidan, nutq iqtisodi, ya'ni ixchamligi buziladi, bu esa, o'z navbatida, fikrlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchidan, termin keragidan ortiq darajada uzun bo'lganda ellipsis (nutq unsurining tushib qolishi) hodisasining vujudga kelish ehtimoli kuchayadi.

5. Yuqoridagi nuqsonga yaqin bo'lgan yana bir kamchilik bu - termin talaffuzining noqulayliyi. Bunday terminlar ikki sababga ko'ra vujudga keladi: 1) asosiy terminni yaratishda uning derivatlilik imkoniyatlari yetarlicha inobatga olinmaydi; 2) xorijiy terminni o'zlashtirishda uning a jiddiy e'tibor bilan qarab, tanqidiy yondoshilmaydi.

6. Terminologiyadagi eng katta kamchilik bu terminologiyani keragidan ortiq miqdorda xorijiy terminlar bilan to'ldirib tashlashdir. To'g'ri, hech qanday til faqat o'z termin elementlari hisobiga terminologiyasini qura olmaydi. Til qurilishi jarayoni shuni ko'rsatadiki, dunyoda sof tilning o'zi umuman mavjud emas. Har doim boshqa tillardan termin o'zlashtirish jarayoni sodir bo'lib turadi, bu jarayondan chekinish mumkin emas. Ammo ehtiyoj sezilmagan holatlarda ham xorijiy terminlarni sun'iy ravishda tilga olib kirish har doim o'zini oqlayvermaydi. Bunday holatlarda ko'proq o'z til imkoniyatlaridan foydalanish va bunda termin ifodalashi lozim bo'lgan tushuncha mohiyati bilan termin o'rtasidagi mutanosiblikni saqlashga e'tiborni qaratish lozim.

7. Ko'p hollarda ba'zi tushunchalarni ifodalovchi terminlar iste'molda mavjud bo'lmaydi. Natijada bunday tushunchalar o'ta muhim va ahamiyatli bo'lishiga qaramasdan, keng tarqalish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

8. Yana bir kamchilik shuki, termin yaratilishida u anglatishi lozim bo'lgan tushuncha mohiyati bilan o'zaro batartiblik (sistemalilik)ning yetishmasligidir".⁹ D.S.Lotte tom onidan ko'rsatib o'tilgan barcha soha terminologiyalariga oid bu kamchiliklar, oradan 40 yildan ortiq vaqt o'tishiga qaramasdan, bugungi kunda ham o'z ahamiyati va dolzarbligini yo'qotmasdan turibdi. Ma'lumki, terminologik

⁹ Лотте Д.С. О основы построения научно-технической терминологии. — Москва, 1961

lug'atlar ham soha terminologiyasini tartibga solishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

II BOB. J. A. KUDDONNING “ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARI VA ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI” LUG’ATIDAGI ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARINING TASNIFI VA TAHLILI

2.1. J. A. Kuddonning “Adabiyotshunoslik terminlari va adabiyotshunoslik nazariyasi” lug’ati va uning yaratilish tarixi

Charlz Kuddon 12ta drama, 3 libretto, 5 roman, 2 ta sayohatnoma, 2 ta lug’at va juda ko’plab hikoya va esselar muallifi hamda dahshatli qo’rqinchli hikoyalar muharriri ham edi. Bundan tashqari u, maktab o’qituvchisi, qobiliyatli sport ustasi va hattoki u yoshligida fotomodel sifatida ham o’zini sinab ko’rgan. Bu taniqli inson 1996-yilning yozida vafot etar ekan, yuqorida ta’kidlangan ijodiy ishlaridan tashqari uning yonib turgan “*Owl’s Watchsong*”(1960) (uning ajoyib Istanbul qasidasi), ulkan va jozibali lug’at “*Dictionary of Sport and Games*” (1980), va quyidagi tahlil qilinayotgan asari “*Dictionary of Literary Terms and Literary Theory*” (1976) kabi asarlarini adabiyot oshuftalariga tuhfa etdi. Uning boy badiiy merosi Kuddonning o’zi haqida yodgorlik desk, adashmagan bo’lamiz. Chunki ular ijodkorning qiziqishlari ko’lamini, ko’zga ko’ringan muvaffaqiyatini, uning ulkan mantiqini hamda yoqimli hazillar qilish qobiliyati va nafis she’riyati o’z aksini topgan. Yuqorida sanab o’tilgan barcha belgi va xususiyatlar ijodkorning o’z do’stlari, shogirdlari, hamkasb olimlar va yozuvchilar hamda uning mehnatidan manfaatdor bo’lgan va kelajakda undan o’z ish faoliyatida foydalanadiganlarga bo’lgan yirik saxovati deb hisoblasak ham bo’ladi.

1996-yil mart oyida hayotining so’nggi onlarida ham Kuddon ijod qilishdan to’xtamadi va o’zining lug’atlariga yana qisqartmalar va oldingi nashrda qilingan xatolarni tuzatish bilan mashg’ul bo’ldi va shuning uchun uning yozib qoldigan adabiy terminlar izohlari juda ham tushunarli va o’qish uchun qulay. Bulardan tashqari u yana bir qancha izohlar va tuzatishlarni o’z qoralamasida borligini va ularni ham nashr ettirish zarurligini o’z shogirdlariga yuklab o’zi bu dunyoni tark etadi va bu uning nechog’lik darajada jonkuyar va fidokor yozuvchi ekanligidan dalolatdir.

“Bir necha yillar o’tib, Charlz va uning mashhur lug’ati kitobxon va

adabiyotshunoslar tomonidan o'rganilib, bir necha kamchiliklari tuzatilib yana yangiliklar kiritilishiga muvaffaq bo'lindi. Bunda esa Kuddonning do'stlari va hamkasblarining hissasi juda katta edi. Ulardan Anna Kuddon, Jin Guder, Erik Griffiths, Kevin Jekson, Jon Kenyon, Jon Kerrigan va Ato Kvaysnlar tasodifiy so'rovnomalarni kitobxonlar o'rtasiga tashlab juda ham muhim va dolzarb ma'lumotlar bilan ta'minlashdi. Bu nashrning chiqishida faol etgan boshqa ijodkorlar ham yangiliklar qo'shishda o'z hissasini qo'shdi. Masalan Jon Lennard "Rhyme", "Punctuation", hamda "Crime fiction" atamalariga izoh yozgan; Klim Vilmer esa "Verse novel", "Dramatic monologue", "Sonnet cycle" terminlari va bir qancha boshqa terminlarga izoh kiritgan va Anna Henry esa "Ellipsis" terminini kiritgan."¹⁰ Bunday katta tashabbus sababli Kuddonning lug'ati adabiyotshunoslik terminlari bilan boyidi va atamashunoslar tomonidan juda iliq qabul qilindi. Uning foydalilik jihatidan ham ko'pgina adabiyotshunos va terminologlarga qo'l keldi.

Kuddonning o'z ishi haqida yozganlaridan shuni bilib oldikki, bunday lug'at tuzish juda og'ir mashaqqat talab etadi. Kuddon bu ishga qo'l urarkan avvalo unga qanday atamalarni kiritish keraku qanday atamalar bu lug'atda zarur emasligi haqida qaror qabul qilish juda ko'p vaqt talab etgan va yillab yozuvchi shu masalada bosh qotirgan. Birinchi navbatda shuni aniqlashtirib olish joizki, avvalambor, adabiyot termini o'zi nima va unga qanday so'zlar kiradi?, chunki ko'plab izohlarda bu tushuncha juda keng qamrovli va turli xil klassifikatsiyalanishi ta'kidlab o'tilgan. Masalan , *Epic* terminini yoki *hexameter* terminichi?, yoki *Elegy*, lekin *Pornography*, *pattersong* va *apocrypha* terminlarini adabiyotshunoslik terminlari deya olamizmi? *Shorter Oxford Dictionary* lug'atida *Literary* tushunchasiga quyidagicha izoh berilgan:" Of or pertaining to, or of the nature of, literature, polite learning, or books and written compositions; pertaining to that kind of written composition which has value on account of its qualities of form."¹¹ Ya'ni bu yerda *adabiy* so'ziga qadr qiymati va sifati yuqori bo'lgan yozma majmua turi, kitoblar yoki yozma kompozitsiya, adabiyotni juda

¹⁰ Cuddon J.A. Dictionary of Literary terms and literary theory. – Fourth edition published in Penguin Books, 1999.

¹¹ Shorter Oxford Dictionary – Oxford University Press, 2007

muloyim yo'lda o'rganish nazarda tutilgan. Agar biz Literary tushunchasini izohlashda mana shu izohlanishni o'rganish nutasi qilib belgilab oladigan bo'lsak, unda termin nima?, va nega ular yozuvchi va bastakorlar tomonidan foydalanilgan. Nafaqat adabiyotshunoslar balki, boshqa ko'plab sohalarning masalan tilshunos olimlarning ham o'z ishlarida terminlardan faol foydalanganliklari hech kimga yangilik emas. Bularning barchasi har bir sohaga qarab o'z ijodkorlari tomonidan yaratilgan va barchasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Kuddon terminlarni tanlashga o'ta sinchkovlik bilan yondashadi va bir necha nashriyot, tilshunoslik, grammatika hamda filologiya atamalarini ham o'z lug'atida jo etishga qaror qiladi. Kuddonning o'zi bu holatni quyidagicha izohlaydi: *“I decided to be judiciously selective and include a few terms of printers, grammarians, philologists and linguisticians. So, for instance, I have included **quarto** and **folio** but left out **line-block** and **galley**. **Paragraph** and **loose** and **periodic sentence** are in; **supine** and **declension** are not. **Keneme** and **morpheme** are in; **diphthong** and **labial** are not.*”¹²

Kuddon uchun lug'atning yana bir muammoli jihati shunda ediki, u o'z lug'atida barcha tillar va adabiyotlarning terminlarini qamrab olish yoki bir necha tillar bilan cheklanishda ikkilandi. Ammo lug'atda shunday juda kamyob va ko'pchilik uchun notanish bo'lgan atamalar borki, uni faqat maxsus kishilargina tushuna olishlari mumkin. Juda uzoq izlanishlar oqibatida Kuddon bir qarorga keladi, ya'ni u bugungi kunda faol va doimiy ishlatilayotgan, kitobxonlarda qiziqish uyg'ota oladigan va ularga nimadir yetkaza bera oladigan adabiyot terminlarini o'zida mujassamlashtirgan qulay va ommabop qo'llanma yaratishga kirishadi. Uning bu ishdan maqsadi kitobxonlar diqqatiga xotiradan chiqib borilayotgan yoki umuman ma'nosi malum bo'lmagan atamalarni masalan haiku, verso tronco, yoki boshqa terminlarning aslida nimani anglatishi va paydo bo'lish tarixi haqida boxabar qilish edi. Ammo, qanchalik uzoq izlanmasin Kuddon o'z ishidan qoniqmas, yanada ko'proq va chuqurroq o'rganishga harakat qilardi. Bu

¹² Cuddon J.A. Dictionary of Literary terms and literary theory. – Fourth edition published in Penguin Books, 1999.

